

XORIJIY VA MILLIY XORIJIY TA'LIM TIZIMLARI

Qo'qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Qo'qon davlat pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Maqolada milliy dastur yaratilishida o'rganilgan Finlyandiya ta'lim tizimlari tuzilmasi, tajribasi, milliy dastur haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, bugungi kunda butun jahonda va O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida islohotlar haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, xalqaro, o'quv dasturi, milliy dastur, maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktabi, o'rta ta'lim, oliy o'quv yurti, baholash,

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish, dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish, ta'lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta'lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan.

Yurtimizda matematika, kimyo, fizika va biologiya fanlarining 10 foizigina amaliy mashg'ulotlarga ajratilgan. Rivojlangan davlatlarda esa 30-50 foizga teng. Shu bois aniq va tabiiy fanlardan amaliy mashg'ulotlar miqdorini oshirish zaruriyati kelib chiqadi. Yurtimizda, xorijiy ta'lim tizimlarini o'rganish asosida milliy dastur yaratildi. Milliy dastur yaratilishi va ishlab chiqilishida dastlab xalqaro ta'lim tizimlari va tajribalari o'rganildi. Finlyandiya, Singapur, Koreya, Angliya kabi bir qator davlatlar ta'lim tizimi va tajribasi o'rganildi. Maqsad esa, Chet el pedagogikasidagi ilg'or jihatlarni o'zashtirish, yangi o'quv predmetlarini ta'lim tizimi tarkibiga kiritish orqali jahondagi eng ilg'or pedagogikalarinig biriga aylantirishdir.

Finlyandiya ta'lim tizimi

Finlyandiya – yuqori natijalarga erishish masalalarida eng barqaror mamlakatlar sirasiga kiradi. Finlyandiya ta'lim tizimining tarkibiy qismi quyidagicha: maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktabi, o'rta ta'lim muassasalari, oliy o'quv yurtlari, munitsipal, xususiy, oilaviy.

Finlyandiya'dagi bolalar bog'chalari bolalarni 9 oylikdan 5 yoshgacha qabul qiladi. Bolalar bog'chalarining asosiy vazifasi kun davomida bolalarga g'amxo'rlik qilish va ota-onalarga bolani tarbiyalashda yordam berishdir. Bolalar qanchalik yosh bo'lsa, o'qituvchilar ular bilan shuncha ko'p ishlaydi.

Bolalar bog'chalari 3 turli bo'ladi: munitsipal, xususiy va oilaviy.

6 yoshida maktabga tayyorgarlik boshlanadi, u bir yil davom etadi. Uning tashrifi barcha bolalar uchun bepul va majburiydir.

Finlyandiya'da maktab ta'limi ikki bosqichdan iborat bo'lib, 9-10 yil davom etadi.

Boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etadi va 3-sinf gacha bolalarga baho qo'yilmaydi, o'qituvchilar tomonidan uyga vazifa deyarli berilmaydi,

Maktablarda haftasiga 5 kunlik o'qish joriy etilgan va barcha maktablar bir xil mavqega ega, bolalar qobiliyatiga ko'ra turli sinf yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga ajratib o'qitilmaydi.

Majburiy ta'lim muhiti 7 yoshdan boshlanadi va 16-17 yoshgacha davom etadi. Davlat bepul asosiy ta'limni kafolatlaydi. Bunga o'qish, darsliklar, daftarlar, asosiy ish yuritish materiallari va maktab ovqatlari ham bepul. 3-sinfda ingliz tilini o'rganish boshlanadi, 4-sinfda bola ixtiyoriy chet tili (frantsuz, nemis yoki rus) ni tanlaydi.

7-sinfdan boshlab o'qituvchilar o'rta maktabga ko'chib o'tadi va mashg'ulotlar 3 yil davom etadi. Agar xohlasa, bolalar qo'shimcha o'ninchi sinfga borib, o'z bilimlarini oshirishi mumkin. 9-sinfda ularning kasblar bilan tanishishiga katta e'tibor beriladi. O'qituvchilar mustaqil ravishda kerakli ish joyini tanlaydilar va uning xususiyatlari bilan tanishadilar.

O'rta maktab o'qituvchilarining 66% qo'shimcha ta'limga (kollej yoki kasb-hunar kurslariga) qatnaydilar.

Finlyandiya universitetlari ikki toifaga bo'lingan: universitetlar va politexnika institutlari. Politexnika institutlarining asosiy farqi birinchi kurs boshida o'quv dasturiga kiritilgan ko'plab amaliy mashg'ulotlardir.

Finlyandiyaning asosiy ta'lim to'g'risidagi qonunida (1998 yil) Finlyandiya ta'limining uchta asosiy maqsadi belgilab berilgan:

o'qituvchilarga hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish,

jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish hamda butun mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida tenglikni ta'minlash.

O'zbekiston ta'lim tizimi

O'zbekistonda 2021-2022 o'quv yilidan boshlab, xalqaro ta'lim tizimi va tajribalarini o'rganish asosida milliy dastur amaliyotga joriy etildi. Bunda OTM-48, AL-33, MOM-48, maktab o'qituvchilari-75 va metodistlar-44, jami 246 nafar milliy ekspertlar va Angliya-4, AQSH-2, Ispaniya-1, Estoniya-2, Gruziya-1, Latviya-1 nafar xorijiy ekspertlar ishtirok etishdi.

Milliy o'quv dasturida O'zbekistonda o'z ichiga biologiya, geografiya, fizika va astronomiya, kimyo, matematika o'quv fanlarini qamrab olgan hamda ularning o'zaro integratsiyasini ta'minlovchi "Tabiiy fanlar" kiritildi. Tabiiy fanlar 1-sinf dan 6 sinfgacha o'qitiladi.

Tabiiy fanlar - kuzatuv va tajribalarga, dalillarga asoslanib, tabiat hodisalarini tasvirlash, bashorat qilish va tushunish bilan shug'ullanadigan fan.

Tabiiy fanlarni o'rganishda o'quvchilar olamning yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglaydi, ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlanadi, kompetentligi shakllanadi.

Milliy o'quv dasturi asosida o'qitishda quyidagi natijalarga erishiladi:

- Mavzular spiralsimon o'rganiladi
- O'quvchi faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar sinflar kesimida beriladi
- STEAM - fanlararo integratsiya ta'minlanganligi.
- O'qituvchi kitobida har bir mavzuni o'qitishda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beruvchi ilg'or metodlar beriladi
- O'quv tadqiqotlarni o'tkazish uchun amaliy mashg'ulotlar va loyiha ishlariga alohida soatlar ajratildi.

-Milliy baholash tizimi yaratiladi.

Amaldagi Fizika fanida tayanch kompetensiyalar 6 ta va fizikadan fanga oid kompetensiyalar 3 tani tashkil etgan.

Tayanch kompetensiyalar:

1. Kommunikativ kompetensiya
2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi
3. O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:
4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
5. Milliy va umummadaniy kompetensiya
6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Fanga oid kompetensiyalar:

1. Fizik jarayon va hodisalarni kuzatish, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi.
2. Tajribalar o'tkazish, fizik kattaliklarni o'lchash va xulosalar chiqarish kompetensiyasi.

3. Fizik bilimlar va asboblardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi.
Milliy o'quv dasturi 2 xil kompetensiya kiritilgan.

1. Ilmiy xabardorlik kompetensiyasi

2. Amaliy kompetensiya

Ilmiy xabardorlik kompetensiyasida o'quvchi quyidagilarga ega bo'ladi:

- nazariy bilimlar asosida turli tabiiy obyektlar, hodisa va jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini biladi, tasavvur qiladi va mohiyatini tushunadi;

- kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni olgan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo'llaydi;

- turli axborot manbalarida berilgan ma'lumotlarni tahlil qiladi, saralaydi, ulardan ta'limiy maqsadlarda foydalanadi va muloqot jarayonida bildirilgan fikrlarni tushunadi, mustaqil va ijodiy fikrlaydi;

- jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'ladi hamda o'z faoliyatini kreativ rivojlantira oladi;

- salomatlik va sog'lom turmush tarzining nazariy hamda amaliy asoslarini biladi.

turli tadqiqotlarni rejalashtiradi, loyihalashtiradi, amalga oshirish usullarini taklif etadi.

Amaliy kompetensiyada esa quyidagilarga erishadi:

- tabiiy fanlardan egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo'llay oladi;

- tabiiy fanlarga oid tadqiqotlarni amalga oshirish usullaridan foydalanadi;

- hodisalarni kuzatadi, taqdimotlar, tajribalar o'tkazadi va zaruriy kattaliklarni asboblardan (sekundomer, tarozi, o'lchov tasmasi, termometr va h.k) yordamida o'lchaydi, hisoblash ishlarini bajaradi;

- turli jihozlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va oqilona foydalanadi;

- Turmush sharoiti va yashash hududining tabiiy rivojlanishiga amaliy ko'nikmalarini safarbar etadi;

- atrof muhit va ekologiyaga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etadi hamda asraydi va o'z faoliyatida sog'lom turmush tarziga amal qiladi;

- kundalik faoliyatida ijodiy va mantiqiy fikrlab, o'zining intellektual rivojlanishini ongli rejalashtiradi, o'quv faoliyati natijalarini nazorat qiladi va baholaydi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos malakali kadrlar tayyorlash hamda

Uchinchi Renessans g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish maqsadida katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ta'lim sohasidagi bugungi kamchiliklarning bartaraf etilishi, xalqaro me'yor va qoidalarning tezroq qabul qilinishi hamda jahon standartlariga asoslangan milliy ta'lim klassifikatsiyasi standarti va milliy kasblar klassifikatsiyasi standarti yaratilishi yangi O'zbekistonning xalqaro ta'lim hamjamiyatiga integratsiyalashuviga va malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06 11 2020 yildagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
2. Abdiyeva K.S. Ta'lim sifat samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish-Oriental scientific-methodical journal, (3) 111/2020.
3. Sh.Kukonboyeva, Formation of professional competence of future physics teachers through independent education, *Academicia An International Multidisciplinary Research journal» India, Vol 12, Issue 05, May 2022.-P 1202-1205*
4. Methods for the formation and evaluation of general compensations for the base and the predicate, *European journal of humanities and educational edancements» 2022. №2.43-45 p*
5. Sh.Qo'qonboyeva, E.Yasharova, M. Mashrabjonova Got acquainted with all the activities based on what a project, *NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX- A Multidisciplinary Peer ReviewedJournal ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 8, ISSUE 12, Dec. -2022*
6. Sh.Qo'qonboyeva, E.Yasharova, Using Keys As Competency-Oriented Assignments, *Texas Journal of Engineering and Technology ISSN NO: 2770-4491 <https://zienjournals.com> Date of Publication:24-01-2023*
7. Sh.Qo'qonboyeva Method of diagnosing the formation of competensions in the future teachers, «International Conference on Research in Humanities, applied Sciences and Education». Berlin, Germany, June 30th 2022.
8. <https://review.uz/uz/post/talim-islohotlari-uchun-xalqaro-standartlar-zarur>